

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TULOVOV ERKINJON TO‘LQIN O‘G‘LI

**QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA
AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical sciences**

Tulovov Erkinjon To'lqin o'g'li

Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish.....3

Туловов Эркинжон Тулкин угли

Совершенствование учета и аудита в строительно-подрядных

организациях.....27

Tulovov Erkinjon Tulkin ugli

Improving accounting and auditing in construction contracting organizations.....51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works56

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TULOVOV ERKINJON TO‘LQIN O‘G‘LI

**QURILISH-PUDRAT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA
AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.2.PhD/Iqt2243 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Abdugapur Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Alikulov Abdimo'min Ismatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti»
Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72. Faks: (99871) 239-43-51.
e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2023-yil "_____" dagi _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

M.P. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida qurilish iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanib, qo‘shilgan qiymat yaratish hamda ishsizlikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro konsalting kompaniyasi hisobotiga ko‘ra, “Qurilish iqtisodiyotning eng muhim tarmog‘i hisoblanib, jahon mamlakatlarida ushbu tarmoqqa har yili o‘rtacha 10 trln AQSh dollari miqdorida mablag‘ yo‘naltiriladi. Biroq qayta ishlaydigan sanoatda mehnat unumdorligi o‘rtacha 3,6 %ni tashkil etgani holda, qurilish tarmog‘ida mazkur ko‘rsatkich 1 %dan oshmaydi”¹. Mazkur holat jahon mamlakatlarida qurilish tarmog‘ida resurslardan oqilona foydalanish va faoliyat samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Shu boisdan qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobi va auditni to‘g‘ri tashkil etish muhimdir.

Jahonda qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida tashkil etishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda qurilish-pudrat tashkilotlarida xarajatlarni tasniflash, hisob siyosatini retrospektiv qo‘llash, segmentar hisobotlarni tuzish, moliyaviy natijalar hisobini yuritishda xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushumni tan olish tartibini takomillashtirish, aktivlar va majburiyatlarni baholashda haqqoniy qiymatdan foydalanish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish, baholangan va shartli majburiyatlar hisobini mukammallashtirish, qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyati auditida tahliliy amallarni qo‘llash, faoliyat uzluksizligi va hisobot sanasidan keyingi hodisalarni baholash, firibgarlik bilan bog‘liq muhim buzib ko‘rsatish holatlari bo‘yicha risklarni baholash, modifikatsiyalangan auditorlik xulosalarini tuzish kabi yo‘nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish borasida amaliy choralar ko‘rilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-6119-sonli farmonida «shaharsozlik faoliyati sohasidagi ma‘muriy tartib-taomillarning samaradorligi, ratsionalligi va shaffofligini ta‘minlash, shuningdek, qurilish tarmog‘i tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish»² vazifasi belgilab berilgan. Bu esa qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini sohasiga bo‘lgan yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Zero, qurilish-pudrat tashkilotlarida resurslardan oqilona foydalanish orqali faoliyat samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli «O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonlari,

¹ <https://www.mckinsey.com>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi».

2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-sonli “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 22-sentyabrdagi PQ-378-sonli «Respublikada kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 171-sonli «O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi, 2022-yil 30-apreldagi 200-sonli «Qurilish sohasiga oid yagona ma‘muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorlari, shuningdek, qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditga taalluqli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditning nazariy hamda uslubiy asoslarini yaratish hamda uni takomillashtirish bo‘yicha bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar, jumladan, X.Anderson, E.A. Arens, Ch.H. Gibson, D.Kolduell, B.Nidlz, Dj.K. Lobbek, V.F. Paliy, Ya.V.Sokolov, V.P. Suys, N.Trabelsi, Dr.M. Tulsian va A.D. Sheremet kabilar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar³.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.Z. Avlokulov, A.I. Aliqulov, R.D. Dusmuratov, A.K. Ibragimov, A.A. Karimov, N.F. Karimov, F.Sh. Ochilov, N.Sh. Xajimuratov, B.A. Hasanov, Sh.A. Xalilov tadqiqotlarida qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditning nazariy jihatlarini rivojlantirish masalalari va yo‘nalishlari o‘rganilgan⁴.

³ Аренс Э.А., Лоббек Дж.К. Аудит. пер. с англ. под ред. проф. Я.В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, 1995. – 560 с.; Charles H. Gibson. Financial Reporting & Analysis. Eleventh Edition. South-Western Cengage Learning, USA. 2009. 608 p., Нидлз Б., Андерсон Х., Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учёта. – Москва: Финансы и статистика, 1997. – 496 с.; Палий В.Ф. Международные стандарты финансовой отчетности. – Москва: ИНФРА-М, 2003. – 454 с.; Соколов Я.В. Основы теории бухгалтерского учета. – М.: Финансы и статистика, 2000. – 496 с.; Trabelsi N. IFRS 15 Early adoption and accounting information: case of real estate companies in Dubai. //Academy of Accounting and Financial Studies Journal Volume 22, Issue 1, 2018. <https://www.abacademies.org>; Tulsian. Dr. Monica. Profitability Analysis (A comparative study of SAIL & TATA Steel). IOSR Journal of Economics and Finance e-ISSN: 2321-5933. Volume 3, Issue 2. Ver. I (Mar. - Apr. 2014), PP 19-22 www.iosrjournals.org; Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит: Учебник. – М.: ИНФРА-М., 2005. – 448 с.

⁴ Avlokulov A.Z. Moliyaviy natijalar hisobi va auditi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2019. – 192-b.; Aliqulov A.I. Xarajatlar hisobi va tahlilining nazariy hamda amaliy masalalari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2011. – 188-b.; Dusmuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2003. – 612-b.; Ibragimov A.K. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, auditi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini aniqlashni takomillashtirish. Iqt. fan. dok. dis. ...avtoref. – Toshkent: 2002. – 42-b.; Karimov A.A. Korporativ boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi va audit. Monografiya. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 152-b.; Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit. Monografiya. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2006. – 262-b.; Ochilov F.Sh. Majburiyatlar hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2021-y. – 56-b.; Xajimuratov N.Sh. Moliyaviy hisobot auditi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: Lesson Press, 2020. – 190-b.; Hasanov B.A. Boshqaruv hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari. Iqt. fan. dok. dis. ...avtoref. – Toshkent: O‘z.R.BMA, 2004. – 42-b.; Xalilov Sh.A. Qurilish tashkilotlarida operatsion faoliyat hisobi va tahlilini takomillashtirish. Iqt. fan. bo‘y. fal. dok. dis. avtoref. – Toshkent: TMI, 2021. – 14-b.

Biroq mazkur mavzu doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish masalalari kompleks va yaxlit tarzda to'liq o'rganilmagan. Bu esa tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, FM-6 «O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotining konseptual yo'nalishi» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qurilish-pudrat tashkilotlarining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatiga baho berish;

qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etishning xususiyatlarini ochib berish;

qurilishga sarflangan xarajatlar hisobining hozirgi holatiga baho berish va xulosalar shakllantirish;

qurilish pudrat tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini tashkil etishning amaldagi holatiga baho berish va xulosalar shakllantirish;

qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga moslashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

qurilish-pudrat tashkilotlarida faoliyat uzluksizligini baholashni takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

qurilish-pudrat tashkilotlarida moliyaviy hisobot auditida baholangan qiymatlarni aniqlashni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida «O'zbekiston temir yo'llari» AJ tizimidagi qurilish-pudrat tashkilotlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik qiyoslash, tahlil va sintez, guruhlash, monografik kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qurilish-pudrat tashkilotlarining hisob siyosatiga 2311-“Beton qorishmalarini tayyorlash xarajatlari” ishchi schyotini kiritish asosida beton qorishmalarini tayyorlashda yuzaga keladigan xarajatlar to'g'risida batafsil axborot shakllantirish hamda qurilish ishlari tannarxining to'g'ri aniqlanishini ta'minlash taklifi asoslangan;

qurilish-pudrat tashkilotlarida hisob siyosatiga 2200-“Subpudratchi tashkilotlar xarajatlari” ishchi schyotini kiritish orqali ishlab chiqarish xarajatlari hisobini optimal tashkil etish asosida subpudratchi tashkilotlar faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish taklifi asoslangan;

qurilish-pudrat tashkilotlarida majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish maqsadida 6991-“Kafolatli ta’mir va xizmat ko’rsatish bo’yicha rezerv” ishchi schyotini kiritish taklif etilgan;

qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik xulosasini shakllantirishni qurilish-pudrat faoliyati uzlyuksizligini baholash orqali auditorlik xulosasi turini tanlash hamda dalillar sifatini ta’minlashda qiymatlarni kombinatsiyalashgan holda baholash orqali takomillashtirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish-pudrat tashkilotlari tovar-moddiy zaxiralari tarkibiga 1081-«Maxsus kiyimlar» ishchi schyotini kiritish tavsiya qilingan;

qurilish-pudrat tashkilotlarida moliyaviy hisobot auditini o’tkazishning 7 bosqichli ketma-ketligi ishlab chiqilgan;

qurilish-pudrat tashkilotlari auditida faoliyat uzluksizligini baholash algoritmini qo’llash taklif etilgan;

qurilish-pudrat tashkilotlarida moliyaviy hisobotni dastlabki tekshirish usullari tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo’llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning umum tan olinganligi va maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy adabiyotlar hamda internet ma’lumotlarining rasmiyligi, qurilish-pudrat tashkilotlariga oid ma’lumotlar hisobot manbalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining normativ-huquqiy hujjatlar hamda qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish jarayonida foydalanishga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditining nazariy hamda tashkiliy-uslubiy jihatlarini xalqaro amaliyot va tajribalardan kelib chiqqan holda takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini jarayonida qo’llaniladigan usullarni tizimlashtirish va asoslash, xarajatlar va moliyaviy natijalar to’g’risidagi axborotlarni hisobotda ishonchli aks ettirish, moliyaviy hisobot ma’lumotlarini shakllantirishda qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini takomillashtirish bo’yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qurilish-pudrat tashkilotlari hisob siyosatiga 2311-«Beton qorishmalarini tayyorlash xarajatlari» ishchi schyotini kiritish asosida beton qorishmalarini tayyorlashda yuzaga keladigan xarajatlar to’g’risida batafsil axborot shakllantirish hamda qurilish ishlari tannarxining to’g’ri aniqlanishini ta’minlash bo’yicha taklif «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ tarkibidagi qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatiga joriy etilgan (“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning 2023-yil 1-iyundagi 424/305-son ma’lumotnomasi). Mazkur yangilikning amaliyotga joriy etilishi beton qorishmalarini tayyorlash xarajatlari bo’yicha batafsil axborot shakllantirilishi hamda qurilish tannarxining to’g’ri aniqlanishiga xizmat qilgan;

qurilish-pudrat tashkilotlarida hisob siyosatiga 2200-«Subpudratchi tashkilotlar xarajatlari» ishchi schyotini kiritish orqali ishlab chiqarish xarajatlari hisobini optimal tashkil etish asosida subpudratchi tashkilotlar faoliyati ustidan samarali nazorat oʻrnatish boʻyicha taklif «Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJ tarkibidagi qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatiga joriy etilgan (“Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJning 2023-yil 1-iyundagi 424/305-son maʼlumotnomasi). Ushbu yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida subpudratchi tashkilotlar faoliyati ustidan samarali nazorat oʻrnatilishiga erishilgan;

qurilish-pudrat tashkilotlarida majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil etish maqsadida qurilish-pudrat tashkilotlari hisob siyosatiga 6991-«Kafolatli taʼmir va xizmat koʻrsatish boʻyicha rezerv» ishchi schyotini kiritish boʻyicha taklif «Oʻzbekiston temir yoʻllari» AJ tarkibidagi qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatiga joriy etilgan (“Oʻzbekiston temir yoʻllari” AJning 2023-yil 1-iyundagi 424/305-son maʼlumotnomasi). Ushbu yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish-pudrat tashkilotlarida kafolatli taʼmir va xizmat koʻrsatish boʻyicha rezervlarni buxgalteriya hisobida alohida va toʻgʻri aks ettirish taʼminlanib, “Baholangan majburiyatlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar” nomli 37-son BHXS talablari bajarilishiga xizmat qilgan;

qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik xulosasini shakllantirishning qurilish-pudrat faoliyati uzluksizligini baholash orqali auditorlik xulosasi turini tanlash hamda dalillar sifatini taʼminlashda qiymatlarni kombinatsiyalashgan holda baholash orqali takomillashtirish boʻyicha taklif Oʻzbekiston Auditorlar Palatasi tomonidan auditorlik tashkilotlarining ichki standartlarini ishlab chiqishda qoʻllanilgan (Oʻzbekiston Auditorlar Palatasining 2023-yil 14-iyundagi 14-06-1-son maʼlumotnomasi). Ushbu yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida moliyaviy hisobot auditida baholangan qiymatlar boʻyicha ishonchli axborot shakllantirish hamda auditorlik dalillarining sifatini oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 5 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, 10 ta maʼruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan; respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib o‘tilgan; muammoning o‘rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi bayon etilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekti, predmeti va usullariga tavsif berilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan; tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi izohlab berilgan; tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etishning nazariy asoslari**» deb nomlanib, unda qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning xususiyatlari va auditning tashkiliy jihatlari yoritilgan.

Iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat xususiyatlari ularda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil etishga bevosita bog‘liq. Qurilish tarmog‘ida ham faoliyatni tashkil etish va yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, mazkur holat qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi ishlari tashkil etishda o‘ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Qurilish-pudrat tashkilotlari ish jarayonlarida smeta hujjatlari muhim o‘rin tutadi. Deyarli barcha qurilish obyektlarida smeta hujjatlaridan keng foydalaniladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda qurilish ishlari hajmi keskin oshib bormoqda. 1-rasmda qurilish ishlari hajmining YaIMdagi ulushi o‘zgarishi keltirilgan.




1-rasm. Qurilish ishlari hajmining YaIMdagi ulushi o‘zgarishi⁵, foizda

1-rasm ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda qurilish ishlarining YaIMdagi ulushi oshib bormoqda. Xususan, 2017-yilda qurilish tarmog‘ining YaIMdagi ulushi 5,7 %, 2021-yilga kelib esa 6,7 %ni tashkil etgan. Bu esa qurilish ishlari hajmining YaIMdagi ulushi yildan-yilga o‘sib borayotganidan dalolatdir.

2-rasmda respublika bo‘yicha qurilish ishlari hajmi dinamikasi keltirilgan.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida tayyorlangan.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari hajmi dinamikasining o‘zgarishi⁶, mlrd so‘mda

2-rasm ma’lumotlariga ko‘ra, 2017-yilda respublika bo‘yicha 34698,0 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib, qurilish ishlari hajmi 107492,7 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bundan ko‘rinadi, qurilish ishlari hajmi yildan-yilga oshib bormoqda.

Qurilish-pudrat tashkilotlari faoliyatining samarali yo‘lga qo‘yilishida buxgalteriya xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobi biznes jarayonlarni aks ettirib, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini ifodalaydi va axborot ta’minoti orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

A.A. Karimov, F.R. Islomov va A.Z. Avlokulov tomonidan nashr etilgan darslikda buxgalteriya hisobi quyidagicha talqin etilgan: “Buxgalteriya hisobi – bu kundalik va umumiy ma’lumotlar olish maqsadida korxonalar xo‘jalik faoliyatini uzluksiz ravishda kuzatish va nazorat qilish tizimidan iborat”⁷.

I.f.d., professor B.Yu. Maqsudovning fikricha, “Buxgalteriya hisobi – bu iste’molchilar uchun qarorlarni tayyorlash, ularni asoslash va qabul qilish uchun kerak bo‘ladigan ma’lumotlarni taqdim etish, iqtisodiy ma’lumotlarni qayd etish va identifikatsiya qilish va ko‘rsatkichlarni hisoblash hamda baholash jarayonidir”⁸.

Boshqa bir guruh iqtisodchi olimlar fikriga ko‘ra, “buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi to‘liq va ishonarli axborotlarni shakllantirish, ichki va tashqi foydalanuvchilarni u bilan ta’minlash, shuningdek, boshqaruv va moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun axborotlardan samarali foydalanishdir”⁹.

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

⁷ Karimov A.A., Islomov F.R., Avlokulov A.Z. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Sharq” NMAK, 2004. – 592-b.

⁸ Maqsudov B.Yu. Zamonaviy boshqaruv hisobining xo‘jalik yurituvchi subyektlarni rivojlantirishdagi roli. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №3, mart, 2012-yil.


⁹ Abduvaxidov F.T., Qo‘ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: TDIU, 2019. – 403-b.

Sh.T. Ergasheva, G'.B. Quvvatov va R.A. Mannapova "buxgalteriya hisobi hisob davri bilan bog'liq barcha jarayonlar, ya'ni buxgalteriya hisobiga oid ma'lumotlarni dastlabki tan olish, zarur hollarda ularni birlamchi hujjatlarda rasmiylashtirish, ma'lumotlarni hisobvaraqlar va hisob reyestrlarida qayd etish hamda moliyaviy hisobot tayyorlash bosqichlarini qamrab oladi", deb ta'kidlashgan¹⁰.

K.B. O'razov va M.E. Po'latov tomonidan buxgalteriya hisobiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Buxgalteriya hisobi – bu iqtisodiyotning quyi bo'g'inini tashkil etuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati, faoliyat natijalari, ularning mablag'lari (mulki, aktivlari), mablag'larning tashkil topish manbalari to'g'risidagi axborotlarni, asosan, pul o'lchov birligida qat'iy hujjat asosida yig'ish, qayd etish, guruhlash, jamlash hamda ularni ichki va tashqi foydalanuvchilar hukmiga tegishli shakl va mazmunda taqdim etish tizimidir"¹¹.

AQShlik iqtisodchi olim K.Jonikning fikricha, "buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyalarini tahlil qilish, tasniflash, qayd etish, umumlashtirish va sharhlash jarayonlarini o'z ichiga qamrab oladi"¹²

Xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbariyati tovar-moddiy zaxiralardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida yo'qotishlarni bartaraf etish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, foyda miqdorini oshirish va mahsulot tannarxini kamaytirishdan manfaatdor bo'ladi. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi moliyaviy-xo'jalik faoliyatini aks ettiradi. Boshqaruv jarayonining bir qismi sifatida u quyidagilarga imkon beruvchi muhim ma'lumotlarni taqdim etadi (3-rasm):



3-rasm. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish yo'nalishlari¹³

¹⁰ Ergasheva Sh.T., Quvvatov G'.B., Mannapova R.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – T.: Ma'naviyat, 2021. – 288-b.

¹¹ O'razov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – 558-b.

¹² Christine Jonick. Principles of Financial Accounting. Textbook. University of North Georgia Press. ISBN: 978-1-940771-15-1. United States of America, 2017. R 308.

¹³ Muallif ishlanmasi.

Buxgalteriya xizmati xodimlari moliyaviy holatni aniqlash uchun buxgalteriya hisobi va hisobot tizimi xususida chuqur bilimga ega bo'lishlari kerak. Moliyaviy holatni dastlabki baholashda buxgalteriya balans ma'lumotlariga tayaniladi.

Iqtisodiyotning globallasuvi va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish muhim hisoblanadi. Buxgalteriya hisobida jahon tajribasidan foydalanish shaffof va ishonchli axborotni shakllantirish imkonini beradi. Bu borada rivojlangan mamlakatlarda to'plangan moliyaviy hisobotni tuzish tajribasini o'rganish lozim.

Boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobi muhim rol o'ynaydi. Korxonalar rahbariyati biznes jarayonlari va moliyaviy natijalariga ta'sir etuvchi haqiqiy xarajatlar, mahsulot tannarxi, foyda va boshqalar haqida xolis va to'liq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Buxgalteriya hisobi korxonada bunday ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda auditorlik faoliyatini rivojlantirish borasida izchil islohotlar olib borilmoqda. Sohaga xalqaro standartlar va ilg'or xorij tajribalari joriy etilmoqda. Mazkur islohotlarda audit ishi sifatini ta'minlash auditorlarning bilim va malaka darajalari hamda auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilmoqda.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlarini tekshirishda auditor quyidagilarning mavjudligi va holatini tahlil qilishi shart:

moliyaviy hisobotlarning ishonchligini tasdiqlash yoki ularning ishonchsizligi to'g'risida auditor fikrini shakllantirish;

moliyaviy hisobot elementlari, jumladan, aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlarni baholashda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari talablariga rioya etilganligini tekshirish;

qurilish-pudrat tashkilotlarida aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlarning hisobot davrida moliyaviy hisobotda aks ettirilishi to'liqligi, ishonchligi va to'g'riligini tasdiqlash;

uzoq muddatli va joriy aktivlar hamda qarz mablag'laridan samarali foydalanish darajasini tekshirish;

asosiy vositalar, tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlarning saqlanishi hamda ishlatilish holatini tekshirish;

sho'ba, qaram va alohida bo'linmalarga yo'naltirilgan investitsiyalar holati va ularning samaradorlik darajasini aniqlash;

majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini tekshirish;

kreditlar va boshqa qarz mablag'laridan foydalanish samaradorligi hamda ularning o'z vaqtida qaytarilishini tekshirish;

davlat byudjetiga soliqlar va to'lovlarning o'z vaqtida to'lanishini o'rganish;

xodimlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirishda mehnat qonunchiligi talablariga rioya etilishini tekshirish.


Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish muhim hisoblanadi. Chunki mazkur tarmoq boshqa tarmoqlarga nisbatan firibgarlik holatlariga moyildir. Qurilish-pudrat tashkilotlarida auditorlik tekshiruvlarining xalqaro standartlar asosida tashkil etilishi haqqoniy auditorlik xulosasi shakllanishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etishning amaldagi holati**» deb nomlanib, unda qurilishga sarflangan xarajatlar hisobini tashkil etishning hozirgi holati, qurilish-pudrat tashkilotlarida moliyaviy natijalar hisobini tashkil etishning amaldagi holati va qurilish-pudrat tashkilotlarini auditdan o'tkazishning amaliy jihatlari yoritilgan.

Qurilish-pudrat tashkilotlarida buxgalteriya hisobida e'tibor qaratiladigan eng muhim jihatlardan biri – bu xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etishdir. Biroq mazkur korxonalarda moddiy xarajatlar hisobini yuritish bugungi kunda talab darajasida emas. Eng katta muammo shundaki, xarajatlarni hisobga olishda dastlabki hisob, ya'ni xo'jalik muomalalarni hujjatlashtirish jarayoni ko'p vaqt talab etadi hamda hisob ishlarini sekinlashtiradi.

Mamlakatimizda kichik korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha isloh qilish sharoitida milliy standartlar qayta ko'rib chiqilib, moliyaviy hisobotning talablariga moslashtirilmoqda. Biroq xalqaro darajada ham standartlar takomillashib bormoqda. Xususan, buxgalteriya hisobining asosiy obyektlaridan hisoblangan moliyaviy natijalar hisobini to'g'ri tashkil etish va tushumni tan olish bo'yicha talablarni ko'rib chiqish maqsadida «Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum» nomli 15-son MHXS qabul qilingan. Mazkur standartni qo'llash iqtisodiyotning barcha tarmog'i kabi, qurilish sohasida ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Qurilish tashkilotlari tushumni tan olishda majburiyatlarni bajarish uchun biznes yuritish usullarini qayta ko'rib chiqishi lozim.

Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan shartlar daromadlar, xarajatlar va moliyaviy natijalarni hisobga olish hamda moliyaviy hisobotda ochib berishda tushumni tan olish tartibiga jiddiy ta'sir qiladi. Qurilish-pudrat tashkilotlarida tushumni tan olish quyidagi beshta bosqichdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq (4-rasm):



4-rasm. Qurilish-pudrat tashkilotlarida tushumni tan olishning beshta bosqichi¹⁴

¹⁴ «Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum» nomli 15-son MHXS asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Quyida ushbu bosqichlarga to'xtalib o'tamiz.

1. Shartnoma shartlarini aniqlash. Mazkur bosqichda qurilish tashkilotlari mijozlar bilan shartnoma shartlariga aniqlik kiritadi. Shartnoma shartlariga aniqlik kiritishda qurilish-pudrat tashkilotining asosiy maqsadi foyda olishga qaratiladi.

“Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum” nomli 15-son MHXS quyidagi masalalarni ochib beradi:

“tomonlar shartnomani ma'qullab, uning shartlarini bajarishi shart;

tashkilot shartnoma bo'yicha berilgan va boshqa tomon ushbu shartnoma bo'yicha sotib oladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga nisbatan tomonlar huquqlarini belgilashi mumkin;

tashkilot tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash tartibini belgilashi mumkin;

shartnoma tijorat mazmuniga ega bo'lib, uning bajarilishi natijasida nafaqat uning muddati va risklari, balki tashkilotning kelajakdagi pul oqimlari ham o'zgaradi; xaridorga berilgan tovarlar yoki xizmatlar evaziga to'lovni korxonaga olishi ehtimoli mavjud”¹⁵.

2. Shartnoma shartlarini bajarish bo'yicha majburiyatlarni belgilash. Har qanday shartnomada muhim band tomonlarning majburiyatlarini belgilash hisoblanadi. “Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum” nomli 15-son MHXS shartnomani bajarish shartlarini alohida majburiyatlarga bo'lishni taklif qiladi.

Shartnomada belgilangan muddatda qurilish tashkiloti buyurtmachining topshirig'iga binoan, ma'lum bir obyektни qurish yoki qurilish sifatida tavsiflangan boshqa ishlarni bajarish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa pudratchiga ishlarni bajarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi, keyin ularning natijasini qabul qilishi va ma'lum bir narxni to'lashi kerak. Mazkur holatda shartnoma obyektни qurish yoki rekonstruksiya qilish uchun ham, o'rnatish, ishga tushirish va qurilish obyektни bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa ishlarni bajarish uchun ham tuziladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, bunday qurilish shartnomasi bo'yicha alohida tovarlar va xizmatlar bo'yicha majburiyatlarni ajratishning hojati yo'q, chunki natija bir xil – obyektни qurish, rekonstruksiya qilish yoki kapital ta'mirlashdir.

3. Bitim narxini aniqlash. Tushumni tan olish uchun ushbu mezon muhim ahamiyatga ega. Aynan u pul qiymatida ifodalangan daromad miqdoriga ta'sir qiladi. Agar “Tushum” nomli 18-son BHXS va “Qurilish shartnomalari” nomli 11-son BHXSda tushum miqdori haqqoniy qiymat bo'yicha aniqlanishi aniq ko'rsatilgan bo'lsa, “Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum” nomli 15-son MHXSda haqqoniy qiymat konsepsiyasi qayta ko'rib chiqilgan va natijada alohida sotish narxini qo'llash taklif etilgan.

Bitim narxini aniqlashda qurilish tashkilotlari quyidagilarni baholashlari lozim: debitorlik qarzlarni undirish, o'zgaruvchan ish haqining ta'siri, pulning vaqt qiymati, shartli to'lov miqdori, pulsiz shaklda mukofot olish va mijozga haq to'lash.

Agar moliyalashtirishning tarkibiy qismi muhim bo'lsa, “Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum” nomli 15-son MHXS yashirin moliyalashtirish ta'sirini aks ettirish uchun tuzatishni talab qiladi. Pudrat shartnomalarida mijozlardan

¹⁵ “Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum” nomli 15-son MHXS.

naqd pul olish muddatlari bo'yicha tushumni tan olish vaqtiga to'g'ri kelmaydigan shartlar bo'lishi mumkin.

Xaridor tomonidan moliyalashtirish bilan bog'liq vaziyat, aslida, teskari holatdir, lekin mazkur jarayon buxgalteriya hisobida butunlay boshqacha tarzda aks etadi. Shu sababli "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum" nomli 15-son MHXS uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha yashirin moliyalashtirish mavjudligi uchun oldindan bo'nak to'lovlari baholashni talab qiladi. Agar bo'nak to'lovlari va savdo tushumlarini tan olish o'rtasidagi vaqt oralig'i bir yildan kam bo'lsa, unda bunday to'lovlar yashirin moliyalashtirish sifatida tan olinmaydi. Mazkur holatda sotuvchi xaridordan qarz oladi. Biroq, agar moliyalashtirish mavjudligi tan olinsa, bo'nak to'lovlari moliyaviy xarajatlar va kechiktirilgan tushumning oshishiga olib keladi.

Mazkur yondashuv muhim moliyaviy tarkibiy qismni o'z ichiga olgan operatsiyalarning ikki qismga, ya'ni tovarlarni sotish va moliyalashtirish bo'yicha bitimga bo'linishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, yashirin moliyalashtirish operatsiyalarini aniqlash va ularni hisobga olish uchun zarur bo'lgan qurilish tashkilotining ichki qoidalarini tashkil etish nuqtayi nazaridan oqibatlar sezilarli bo'lishi mumkin.


4. Bajarilishi lozim bo'lgan bitim narxini taqsimlashni amalga oshirish. Mazkur bosqichning mohiyati shundan iboratki, bitim narxi barcha majburiyatlarga ajratilishi lozim.

5. Tushumni tan olish. Ushbu bosqich tushum vaqtini aniqlash konsepsiyasini o'zgartiradi.

"Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum" nomli 15-son MHXS nafaqat qurilish sohasidagi, balki barcha tashkilotlarga nisbatan ham amal qiladi. Qurilish tarmog'ining har bir subyekti moliyaviy natijalarni hisobga olish va tushumni tan olishda ushbu modelni qo'llashi kerak. Uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha ishlaydigan qurilish-pudrat tashkilotlarida tushumning yuqorida tavsiflangan uchta tan olish shartlaridan kamida bittasiga muvofiqligini baholash lozim.

Auditorlik tekshiruvlarida dalil to'plashda tahliliy amallar eng ko'p qo'llaniladi. Tahliliy amallar moliyaviy va nomoliyaviy ma'lumotlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklar, shuningdek, boshqa ma'lumotlarga mos kelmaydigan yoki prognoz qiymatlardan farq qiladigan jihatlarni aniqlash maqsadida qo'llaniladi.

Tahliliy amallar moliyaviy hisobot auditini rejalashtirish jarayonida ham, tekshiruvni o'tkazish jarayonida ham qo'llaniladi. Tahliliy amallarni qo'llashda auditor xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, shuningdek, moliyaviy ma'lumotlarni ifodalovchi uning tarkibiy komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklarni ham inobatga olishi kerak. 5-rasmda tadqiqot obyekti hisoblangan "Ko'prikqurilish" trestida uzoq muddatli va joriy aktivlar ulushining o'zgarishi keltirilgan.



5-rasm. “Ko‘prikqurilish” trestida uzoq muddatli va joriy aktivlar ulushining o‘zgarishi, %da¹⁶

5-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, “Ko‘prikqurilish” trestida joriy aktivlar aktivlarning yarmidan ko‘proq qismini tashkil etgan. Xususan, 2018-yilda joriy aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 53,3 %, 2022-yilda esa 62 %ni tashkil etgan. O‘z navbatida, uzoq muddatli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 2018-yilda 46,7 %, 2022-yilda esa 38,0 %ni tashkil etgan. 1-jadvalda “Ko‘prikqurilish” trestida xususiy kapital komponentlari tarkibining o‘zgarishi keltirilgan.

1-jadval

“Ko‘prikqurilish” trestida xususiy kapital komponentlarining o‘zgarishi, ming so‘mda¹⁷

Ko‘rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2022-yilda 2018-yilga nisbatan o‘zgarishi	
						ming so‘mda	foizda
Ustav kapitali	1209028	1259028	1259028	1209028	1209028	0	100,0
Rezerv kapitali	373166154	424938401	515310661	486852671	484902608	111736454	129,9
Taqsimlanmagan foyda	10939587	12193765	13216652	-89892288	-299761180	-310700767	-2740,2
Maqsadli tushumlar	1635578	1635578	1635578	657578	657578	-978000	40,2
Jami	386950347	440026772	531421919	398826989	187008034	-199942313	-2470,0


1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, “Ko‘prikqurilish” trestida xususiy kapital tarkibiy o‘zgarishida salbiy holat kuzatilgan. 2022-yilda 2018-yilga nisbatan xususiy kapital qiymati -199.942.313 ming so‘m yoki -2470 %ga kamaygan. Mazkur holatga taqsimlanmagan foydaning keskin kamayganligi va qoplanmagan zarar yuzaga kelganligi sabab bo‘lgan. Xususan, “Ko‘prikqurilish” trestida 2022-yilda

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

¹⁷ Muallif ishlanmasi.

qoplanmagan zarar summasi -299.761.180 ming soʻmni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan taqsimlanmagan foydaning kamayishi -310.700.767 ming soʻmni tashkil etgan. Shuningdek, 2022-yilda 2018-yilga nisbatan maqsadli tushumlarning kamayishi -978000 soʻmga teng boʻlgan. Ushbu holatlar “Koʻprikqurilish” trestida moliyaviy holatning salbiy tomonga oʻzgarganligidan dalolat beradi.

6-rasmda “Koʻprikqurilish” trestida uzoq muddatli va joriy majburiyatlar ulushining oʻzgarishi keltirilgan.



6-rasm. “Koʻprikqurilish” trestida uzoq muddatli va joriy majburiyatlar ulushining oʻzgarishi, %da¹⁸


6-rasm maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, “Koʻprikqurilish” trestida joriy majburiyatlar qarz mablagʻlarining asosiy qismini tashkil etgan. Xususan, mazkur korxonada jami majburiyatlar tarkibida joriy majburiyatlar ulushi 2018-yilda 94,9 %, 2022-yilda 88,6 %ni tashkil etgan. Oʻz navbatida, jami majburiyatlar tarkibida uzoq muddatli majburiyatlarning jami majburiyatlardagi ulushi 2018-yilda 5,1 %, 2022-yilda 11,4 %ni tashkil etgan. Ushbu holat mazkur korxonada toʻlov muddati kelgan majburiyatlarning koʻpligidan dalolat beradi.

